
BILASIZMI?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktyabrdagi 654-son qarori bilan tasdiqlangan "Kam ta'minlangan oilalarni Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali aniqlash, ularga kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 15-bandi o'ninchi xatboshiga asosan ariza beruvchi tomonidan barcha hujjatlar to'liq taqdim etilmagan hollarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi ariza beruvchiga qo'shimcha ravishda qaysi hujjatlar taqdim etilishi kerakligi haqida xabar qiladi.

Ushbu holatlarda ariza beruvchi tomonidan taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlar qo'shimcha besh kun ichida, biroq ushbu nafaqa yoki moddiy yordam olishni istayotgan oydan oldingi oyning 16 - sanasiga qadar taqdim etilishi shart.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Farg'ona tumani bo'lim boshlig'i U.O.Yuldashev

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2022-11-02 13:15:43